# Qoraqalpog’iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-noyabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 12366,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (85,9 %) ni tashkil etdi.







***B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o’sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 6,9 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 37,0 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 82,7 % ga va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 32,3 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

*yanvar-noyabr oylarida*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

### Ohak tosh




### Gaz kondensati




### Tabiiy gaz




### Tabiiy qum




### Qattiq holdagi tuz




### Chaqiq tosh



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohak tosh , *ming t.* | 192,7 | 220,9 | 28,2 |
| Tabiiy qum, *ming t.* | 627,3 | 416,2 | -211,1 |
| Tabiiy gaz, *mln. kub.m.* | 2716,9 | 2447,2 | -269,7 |
| Gaz kondensati, *ming t.* | 108,9 | 100,8 | -8,1 |
| Chaqiq tosh, *ming t.* | 323,1 | 258,6 | -64,5 |
| Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, *ming t.* | 99,2 | 64,2 | -35,0 |

**Ishlab chiqaradigan sanoat**

*yanvar-noyabr oylarida*




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10619,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,9 % ini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2019- yil yanvar-noyabr oylarida – 1,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 62,3 % (67,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,7 % (4,6 %) va quyi texnologiyalisi 31,8 % (26,5 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 53,2 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 104,8 %) , oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %) , to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,3 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,3 %) , boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 259,7 ming tonna portlandsement (2019- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 55,9 % ga o‘sgan), 6,5 ming tonna tozalangan guruch (63,7 %), 9,7 ming tonna kalava ip (27,8 %), 85,2 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (15,9 %) va 10,1 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (11,0 %) ishlab chiqarilib , yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** *ming t.* | 34,0 | 32,0 | -2,0 |
| **Aroq,** *ming litr 100 % li spirt* | 3872,0 | 3213,7 | -658,3 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *t.* | 7596,8 | 9709,0 | 2112,2 |
| **Polietulen,** *ming t.* | 329,9 | 320,7 | -9,2 |
| **Polipropilen,** *ming t.* | 86,2 | 89,0 | 2,8 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-noyabr oylarida*




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1558,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (12,6 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 37,0 % ga oshganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 3184,8 | 3885,1 | 700,3 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 39,1 | 32,6 | -6,5 |
| **Gazsimon yonilg’ini quvurlar orqali taqsimlash bo’yicha xizmatlar,** *mlrd. so’m* | 51485,5 | 74521,3 | 23035,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,5 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transport-tirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 5100,1 | 5657,5 | 557,4 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar**, *mln. so‘m* | 9635,4 | 11266,8 | 1631,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 35126,5 | 39230,4 | 4103,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 10,9 % ga,xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 16,9 % ga suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar -11,7 % ga oshganligi kuzatildi.

**Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2411,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,3 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 6,5 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqa-rilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 20,8 % ni, shuningdek, Beruniy tumani 10,2 % ni, To'rtko'l tumani 8,1 % ni  Xo'jayli tumani 7,6 % ni hamda Taxiatosh tumani 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (107,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Mo'ynoq (203,9 %), Bo’zatov (190,7 %), Taxtako'pir (144,0 %), Shumanay (133,0 %), Chimboy (128,4 %), Taxiatosh (125,4 %) hamda Kegeyli (119,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘ston Resp. | 2411,0 | 100 | 107,5 |
| Nukus | 52,5 | 2,2 | 100,3 |
| Amudaryo | 134,6 | 5,6 | 116,5 |
| Taxiatosh | 161,2 | 6,7 | 125,4 |
| Beruniy | 246,0 | 10,2 | 118,5 |
| Taxtako'pir | 121,3 | 5,0 | 144,0 |
| Bo`zatov | 15,1 | 0,6 | 190,7 |
| To'rtko'l | 194,8 | 8,1 | 114,0 |
| Qonliko'l | 143,0 | 5,9 | 115,8 |
| Xo'jayli | 183,1 | 7,6 | 103,7 |
| Qorao'zak | 55,4 | 2,3 | 106,7 |
| Chimboy | 123,0 | 5,1 | 128,4 |
| Kegeyli | 56,0 | 2,3 | 119,9 |
| Shumanay | 65,6 | 2,7 | 133,0 |
| Qo'ng‘irot | 159,0 | 6,6 | 100,4 |
| Ellikqal'a | 145,7 | 6,1 | 109,1 |
| Mo'ynoq | 52,9 | 2,2 | 203,9 |
| Nukus sh. | 501,8 | 20,8 | 81,8 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 20,4 %, shuningdek, To’rtko’l 9,5 % ni, Taxiatosh 9,4 % ni, Qonliko'l 7,9 % ni, Taxtako'pir 7,0 % ni va Xo'jayli tumanlari 6,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Mo'ynoq (320,5 %), Bo`zatov (211,7 %), Taxtako'pir (172,3 %), Taxiatosh (154,5 %), Qorao'zak (128,6 %) va Amudaryo (126,2 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘ston Resp. | 1473,0 | 100 | 122,1 |
| Nukus | 33,3 | 2,3 | 95,5 |
| Amudaryo | 77,4 | 5,3 | 126,2 |
| Taxiatosh | 138,3 | 9,4 | 154,5 |
| Beruniy | 91,5 | 6,2 | 92,0 |
| Taxtako'pir | 102,4 | 7,0 | 172,3 |
| Bo`zatov | 11,6 | 0,8 | 211,7 |
| To'rtko'l | 140,0 | 9,5 | 116,9 |
| Qonliko'l | 116,7 | 7,9 | 124,6 |
| Xo'jayli | 96,0 | 6,5 | 98,4 |
| Qorao'zak | 30,7 | 2,1 | 128,6 |
| Chimboy | 84,1 | 5,7 | 122,9 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Kegeyli | 30,0 | 2,0 | 98,7 |
| Shumanay | 30,7 | 2,1 | 119,5 |
| Qo'ng‘irot | 69,6 | 4,7 | 88,2 |
| Ellikqal'a | 78,5 | 5,3 | 100,1 |
| Mo'ynoq | 41,1 | 2,8 | 320,5 |
| Nukus sh. | 301,1 | 20,4 | 80,6 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqari-lishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 21,4 %, shuningdek, Beruniy tumani 16,5 % ni, Qo'ng‘irot tumani 9,5 % ni, Xo'jayli tumanlari 9,3 % ni hamda Ellikqal’a tumani 7,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Kegeyli (159,3 %), Shumanay (147,7 %), Bo`zatov (143,4 %), Beruniy (142,8 %), Chimboy (142,0 %), Ellikqal’a (122,0 %) va Qo'ng‘irot (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘ston Resp. | 938,0 | 100 | 105,5 |
| Nukus | 19,2 | 2,0 | 109,9 |
| Amudaryo | 57,2 | 6,1 | 105,6 |
| Taxiatosh | 22,9 | 2,4 | 58,8 |
| Beruniy | 154,5 | 16,5 | 142,8 |
| Taxtako'pir | 18,9 | 2,0 | 76,2 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Bo`zatov | 3,5 | 0,4 | 143,4 |
| Qonliko'l | 26,3 | 2,8 | 88,3 |
| Qorao'zak | 24,7 | 2,6 | 88,1 |
| Kegeyli | 26,0 | 2,8 | 159,3 |
| Qo'ng‘irot | 89,4 | 9,5 | 112,4 |
| Mo'ynoq | 11,8 | 1,3 | 90,0 |
| To'rtko'l | 54,8 | 5,8 | 107,2 |
| Xo'jayli | 87,1 | 9,3 | 110,2 |
| Chimboy | 38,9 | 4,1 | 142,0 |
| Shumanay | 34,9 | 3,7 | 147,7 |
| Ellikqal'a | 67,2 | 7,2 | 122,0 |
| Nukus sh. | 200,7 | 21,4 | 83,5 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6876,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.

## Qoraqalpog`iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘ston Resp. | 12366,4 | 100 | 103,3 |
| Amudaryo | 364,3 | 2,9 | 106,6 |
| Beruniy | 269,6 | 2,2 | 104,8 |
| Bo`zatov | 92,0 | 0,7 | 103,6 |
| Qonliko'l | 293,2 | 2,4 | 106,1 |
| Qorao'zak | 275,0 | 2,2 | 112,0 |
| Kegeyli | 229,7 | 1,9 | 116,2 |
| Qo'ng‘irot | 576,5 | 4,7 | 109,5 |
| Mo'ynoq | 114,0 | 0,9 | 123,3 |
| Nukus | 250,8 | 2,0 | 100,8 |
| Taxiatosh | 1480,9 | 12,0 | 136,0 |
| Taxtako'pir | 175,9 | 1,4 | 121,0 |
| To'rtko'l | 357,2 | 2,9 | 107,2 |
| Xo'jayli | 349,4 | 2,8 | 106,9 |
| Chimboy | 192,3 | 1,6 | 112,2 |
| Shumanay | 121,6 | 1,0 | 147,6 |
| Ellikqal'a | 281,5 | 2,3 | 108,6 |
| Nukus sh. | 6942,5 | 56,1 | 96,1 |

## Qoraqalpog`iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o‘sishshini, Shumanay (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 147,6 %), Taxiatosh (136,0 %), Mo’ynoq (123,3 %), Taxtako'pir (121,0 %) hamda Kegeyli (116,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o‘sganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| **Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da*** | **Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da** |
|---|---|




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishi Nukus shahrida (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 96,1 %) kuzatildi.

## Qoraqalpog`iston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 56,1 % i), Taxiatosh (12,0 %), Qo’ng’irot (4,7 % ), Amudaryo va To’rtko’l (2,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Bo’zatov (0,7 %), Mo’ynoq(0,9 %) hamda Shumanay (1,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (21614,2 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 19985,9 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (6484,1 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1264,1 ming so‘m bo‘lgani holda, Nukus shahrida – 1562,3 ming so‘mni, Taxtako’pir tumanida – 2994,3 ming so‘mni, Qonliko'l tumanida – 2793,2 ming so‘mni, Taxiatosh tumanida 2176,0 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-noytabr oylarida, ming so‘m*

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 6484,1 | 1264,1 |
| Nukus | 4965,5 | 1040,3 |
| Amudaryo | 1822,4 | 673,3 |
| Taxiatosh | 19985,9 | 2176,0 |
| Beruniy | 1400,7 | 1277,7 |
| Taxtako'pir | 4343,9 | 2994,3 |
| Bo`zatov | 4257,2 | 699,3 |
| To'rtko'l | 1659,0 | 904,7 |
| Qonliko'l | 5726,5 | 2793,2 |
| Xo'jayli | 2836,0 | 1486,4 |
| Qorao'zak | 5197,9 | 1046,8 |
| Chimboy | 1707,7 | 1092,2 |
| Kegeyli | 3159,4 | 770,8 |
| Shumanay | 2152,6 | 1161,5 |
| Qo'ng‘irot | 4417,7 | 1218,3 |
| Ellikqal'a | 1759,4 | 910,3 |
| Mo'ynoq | 3562,9 | 1653,0 |
| Nukus sh. | 21614,2 | 1562,3 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2793,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,6 % ni tashkil etdi.






Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Ellikqal'a (99,9 %), Mo'ynoq (99,6 %), Beruniy (80,7 %), To'rtko'l (71,2 %) hamda Qorao'zak 60,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nukus shahriga (9,3 %) hamda Taxiatosh (12,8 %), Qonliko'l (14,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2020- yil 1 dekabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda respublikada 2874 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1174 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 40,9 %) Nukus shahriga 577tasi (20,1 %), To'rtko'l 312tasi (10,9 %), Beruniy 285 tasi (9,9 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda*** — **Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda***




2020- yil yanvar-noyabr oyida respublikada 741 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 339 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 45,7 %) Nukus shahrida 109 tasi (14,7), Ellikqal'a 80 tasi (10,8 %), Beruniy 78 tasi (10,5 %) hamda 72 tasi (9,7 %) To'rtko'l tumanlarida tashkil etildi.

**Qoraqalpog’iston Respublikasi statistika boshqarmasi sanoat statistikasi bo’limi** *Tel.: (61) 224-92-08*